



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№10
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal





Boshlang'ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish	322
Ismoilova Surmaxon Amonovna, Yusupova Mohinur	
Qoraqalpoqlarning dehqonchilik marosimlari	326
Orinboyeva Go'zal Polatovna	
The Complexity of Training Teaching Staff for Work in Public Schools Organized in Medical Stations in Uzbekistan.....	330
Inogamova Dilfuza Rakhmatullaevna	
Boshlang'ich ta'lim texnologiya fanini o'qitishda STEM yondashuvi orqali o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish.....	335
Jabbarova Zuhra Omondullayevna	
Eshitishda nuqsoni mavjud bolalarni nutqini shakllantirish metodikasi	338
Z. N. Mamarajabova	
5–7-sinf qizlarida raqamli texnologiyalar ta'sirida tarbiya jarayonining o'ziga xosliklari.....	341
Abdurazzoqova Marg'uba Muxammad qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish diagnostikasi: metodlar va natijalar ..	345
Abduxamidova Dilorom Abdumuminovna	
PISA topshiriqlari asosida o'quvchilarda tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish	349
Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna	
Bo'lajak surdotarjimonlar uchun faoliyat turlarini tanlashda ko'maklashish	354
Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna	
Mustaqil ta'limni tashkillashtirishda tarjimadan foydalanish jarayonlari	357
Erkayev Elmirza Temirovich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishda kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining o'rni.....	361
Jumayeva Muxlisa Shokir qizi	
Tasks, Exercises, and Activities in the English Classroom: Differences, Similarities, and Effective Use	366
Qodirov Olim Odilovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalari	372
Safarova Mohichehra Xonzafarovna	
Malaka oshirish tizimida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish masalalari.....	376
Saidova Dilnoza Maripovna	
O'zbekiston va Yaponiya dzyudo trenerlarining mashg'ulot jarayonlarini qiyosiy tahlili.....	380
Sharipov Xabibullo Abduqahhorovich	
"Kompyuter lingvistikasi"ning rivojlanish tendensiyasi.....	386
Xusanboyeva Muxlisa Ikrojon qizi	
Педагогические технологии стратегического развития взаимного сотрудничества организаций дошкольного образования и родителей.....	392
Тухлиев Муслимбек Шерзод угли	
Oliy ta'limda inklyuziv ta'lim tizimini joriy etish muammolari	397
Dilbar Nurkeldiyeva	
Ixtisoslashtirilgan ta'lim muasasalarida tarbiyaning o'rni.....	401
Laylo Sharopovna Nurmuxamedova	
Intellektida kamchiligi bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvida muloqotning shakllanish xususiyatlari	405
Shahnoza Amirsaidova	
Aqli zaif bolalarga ta'lim jarayonida o'yin faoliyatini shakllantirishning ahamiyati.....	409
Ziyodullayeva E'zoza Ne'matjonovna	
Pedagogik texnologiyalar metodlarini tanlash va qo'llashning umumiy mezonlari	412
Abdullayeva Komila Tursunovna	
Didaktik o'yinlar vositasida 2-sinf o'quvchilarida bog'lanishli nutq ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	416
Askarova Gulayim Arislan qizi	
Yugurib kelib uzunlikka sakrovchilarda tezkorlikni samarali va jadal rivojlantirishni ilmiy asoslash.....	420
Avazov Shukrullo Ibatovich, Nuraliyeva O'g'iloy Shomurotovna, Mustafayev Ismoil Nuralio'g'li	
Boshlang'ich sinflarda kreativ ta'limning o'ziga xos xususiyatlari va zaruriyati.....	425
Axmedova Mastura Jamoliddinovna	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarda tabiatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari	430
Azizova Dilnora	



BO'LAJAK SURDOTARJIMONLAR UCHUN FAOLIYAT TURLARINI TANLASHDA KO'MAKLASHISH

Dehqanova Muborakxon G'iyosiddinovna

CHDPU, Maxsus pedagogika kafedrası
katta o'qituvchisi (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak surdotarjimonlar faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan kasb sohalari haqida ma'lumot berilgan. Mazkur sohalarni tanlashda jamiyatning o'rni va ta'sirini inobatga olish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: Surdotarjimon, soha, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, sport, efir, subtitrl.

Abstract: This article provides information about the professional fields in which future sign language interpreters can work. The importance of considering the role and influence of society when choosing these professions is emphasized.

Key words: Sign language interpreter, field, education, medicine, culture, sports, broadcasting, subtitles.

Аннотация: В данной статье представлена информация о профессиональных сферах, в которых могут работать будущие сурдопереводчики. Отмечается важность учета роли и влияния общества при выборе данных профессий.

Ключевые слова: Сурдопереводчик, сфера, образование, медицина, культура, спорт, эфир, субтитры.

KIRISH

Nogironligi bo'lgan shaxslarning, xususan eshitishda nuqsoni bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy hayotga qo'shilishi ularning teng huquqli faoliyat yuritishini ta'minlashga bog'liqdir. Bugungi kunda surdotarjimonlik faqat ta'lim yoki ijtimoiy xizmatlarda emas, balki turli sohalarda ham dolzarb hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi shaxslarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini ta'minlash uchun surdotarjimonlar ko'plab sohalarda zarur bo'lib qolmoqda. Surdotarjimonlik fani kar va zaif eshituvchi insonlarning turli sohalarda faol ishtirokini ta'minlaydi. Ularning huquqiy, ta'limiy, tibbiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish orqali ijtimoiy adolat va tenglikka erishiladi.

Hozirgi kunda quyidagi sohalarda surdotarjimon kerak bo'lmoqda:

- Ta'limda: dars materiallarini o'zlashtirishga yordam beradi;
- Tibbiyotda: shifokor va bemor muloqotini ta'minlaydi;
- Huquqiy sohada: adolatli jarayon o'tkazilishiga yordam beradi;
- Madaniyatda: konsert, teatr, kino tadbirlarida teng ishtirokni ta'minlaydi;
- Sportda: musobaqa jarayonini tushuntiradi;
- OAVda: subtitrl va imo-ishora orqali dasturlarni yetkazadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta'lim olish har bir insonning ajralmas huquqi hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi shaxslar ham umumiy hamda maxsus ta'lim tizimida bilim olishlari uchun teng sharoitga ega bo'lishlari lozim. Ammo asosiy muammo – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning qiyinlashuvidir. Surdotarjimonlik bu jarayonda bilim vositachisi sifatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Surdotarjimonning ta'limdagi asosiy vazifalari maktab ta'limida quyidagilardan iborat:



Dars mazmunini kar
o'quvchilarga yetkazib
berish

O'qituvchi va o'quvchi
o'rtasida savol-javobni
ta'minlash

Sinf doshlar bilan ijtimoiy
muloqotda vositachilik
qilish

O'rta maxsus va oliy ta'limda

Ma'ruza, seminar va
amaliy mashg'ulotlarda
tarjima qilish

O'quv jarayonidagi ilmiy
atamalarini imo-ishora tilida
to'g'ri tushuntirish

O'quv jarayonidagi ilmiy
atamalarini imo-ishora
tilida to'g'ri tushuntirish

Qo'shimcha ta'limda:

Onlayn ta'lim
platformalarida (Zoom,
Moodle, Coursera va h.k.)
imo-ishora tarjimasi qilish

Masofaviy darslarda
videomateriallarga
subtitrlar va imo-ishora
tarjimasi kiritish

To'garaklar, seminarlar
va treninglarda faol
ishtirokni ta'minlash.

Ta'lim sohasida
surdotarjimonlik
ning o'ziga xos
jihatlari

Terminologiya bilan ishlash:
fanlarga oid murakkab ilmiy
tushunchalarni oddiy va
tushunarli imo-ishora tiliga
o'tkazish

Metodik yondashuv:
o'quvchi yoshiga,
psixologik
xususiyatlariga qarab
tarjimani

Ikki tomonlama muloqot: faqat dars
mazmunini tarjima qilish emas, balki
o'quvchilarning savollari va fikrlarini
o'qituvchiga aniq yetkazish

Pedagogik hamkorlik:
o'qituvchi, ota-ona va
logopedlar bilan
hamkorlikda ishlash

TAHLIL VA NATIJALAR

Sog'liqni saqlash har bir inson uchun eng muhim huquqlardan biridir. Kar va zaif eshituvchi shaxslar ham shifokor xizmatlaridan to'liq foydalanishlari kerak. Ammo ular uchun asosiy to'siq – bu muloqot muammosi. Surdotarjimonlik tibbiyot sohasida shifokor va bemor o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini bajaradi. Bemorni qabul qilish jarayonida shifokorning savollari va ko'rsatmalarini bemorga aniq tarjima qilish, diagnostika vaqtida tahlil, tekshiruv va muolajalar haqida batafsil tushuntirish, davolash jarayonida dorilarni qabul qilish tartibi, parhez, davolovchi mashqlarni bemorga to'g'ri yetkazish, shoshilinch yordam holatlarida tezkor tarjima orqali bemorga yordam ko'rsatish jarayonini yengillashtirish, reabilitatsiya davrida esa bemor psixologik qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lganda vositachilik qilish surdotarjimonlikning asosiy yo'nalishlaridandir.

Tibbiyot sohasidagi surdotarjimonlikning o'ziga xos jihatlari texnik terminlarni imo-ishora tilida aniq va sodda qilib tushuntirish, tibbiy sirni saqlash, bemor stress holatida bo'lgani uchun tinchlantiruvchi va tushunarli yondashuv bilan ishlash, shifokorlar, hamshiralar, psixologlar va boshqa tibbiyot xodimlari bilan hamkorlik qilish kiradi. Surdotarjimonlar poliklinikalarda oddiy qabul va maslahat jarayonlarida, kasalxonalarda jarrohlik, davolash va kuzatuv davrida, aptekalarda dori-darmonlarni qanday qabul qilishni tushuntirishda, reabilitatsiya markazlarida fizioterapiya, psixologik yordam va logopedik mashg'ulotlarda, shuningdek, sanitariya-ma'rifiy tadbirlarda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda faol ishtirok etadilar. Huquqiy sohada surdotarjimonlik – bu nafaqat tarjima, balki huquqiy adolat va tenglikni ta'minlashning kafolatidir. Sud, notariat va tergov organlarida surdotarjimon xizmatlari orqali kar va zaif eshituvchi shaxslar jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'z huquqlaridan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sud majlislarida surdotarjimonlik qilishda guvoh, jabrlanuvchi yoki ayblanuvchi sifatida ishtirok etuvchi eshittirishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning so'zlari sud majlisida surdotarjimon orqali tarjima qilinadi, huquqiy tenglik ta'minlanadi, ular o'z fikrlarini to'liq ifoda etib, qarorlarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar.

Adolatli sudlovni ta'minlash xalqaro huquqiy me'yorlarga ko'ra majburiy hisoblanadi, chunki nogironligi bo'lgan shaxslarga maxsus vositalar bilan yordam berish talab etiladi. Shuningdek, meros, vasiyatnoma, oldi-sotdi, kredit shartnomasi kabi huquqiy hujjatlarni to'liq tushunish uchun surdotarjimon vositachilik qiladi, bu orqali kar fuqaro o'z xohishini aniq ifodalaydi va huquqiy xatolarning oldi olinadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda surdotarjimonlar so'roq jarayonida tergovchilar savollari va gumondor yoki jabrlanuvchi javoblarini aniq tarjima qiladilar, kar shaxsning huquqlari – masalan, advokat yollash yoki jim turish huquqi haqida to'liq ma'lumot yetkazadilar, advokat va mijoz o'rtasida vositachilik qilib, samarali muloqot o'rnatadilar. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonunda eshitishta nuqsoni bo'lgan fuqarolar uchun tarjima xizmatlarini ta'minlash belgilangan.

BMT Konvensiyasi (2006-yil)da esa nogironlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlatlarga surdotarjimonlikni huquqiy jarayonlarda joriy etish majburiyati yuklatilgan. Rivojlangan davlatlarda sudlarda maxsus sertifikatlangan surdotarjimonlar faoliyat yuritadi va ularning xizmat xarajatlari davlat tomonidan qoplanadi. Madaniyat va san'at insoniyatning ruhiy-ma'naviy olamini boyituvchi eng muhim sohalardan biridir. Kar va zaif eshituvchi insonlar ham ushbu qadriyatlarning to'laqonli ishtirokchisiga aylanishlari uchun surdotarjimonlik xizmatlari katta ahamiyat kasb etadi. Madaniyat va san'at sohasida surdotarjimonlik – bu nafaqat tarjima, balki ijodiy faoliyatdir, chunki surdotarjimon san'at asarining ohangini, kayfiyatini va badiiy ma'nosini imo-ishoralar orqali qayta yaratadi. Shuning uchun bu sohada faoliyat yurituvchi surdotarjimonlar yuqori estetik did, ijodiy yondashuv va professional malakaga ega bo'lishi zarur. Ular konsertlarda qo'shiqlar matni va mazmunini imo-ishora orqali yetkazib, musiqa kayfiyatini ifodalashga intiladilar, teatrlarda aktyorlar nutqini, dialog va monologlarni imo-ishora tili orqali tomoshabinlarga tarjima qiladilar, sahnadagi hissiyot va obrazlarni ifodalaydilar, filmlar va seriallarda subtitrlar qo'shish orqali nutqlarni yozma shaklda taqdim etadilar, shuningdek, ekran burchagida surdotarjimon oynasi orqali kar tomoshabinlar uchun maxsus tarjima imkoniyatini yaratadilar.

Bolalar uchun mo'ljallangan multfilmlarda esa eshitishta nuqsoni bo'lgan bolalarning tushunishini yengillashtirish maqsadida subtitrlar va soddalashtirilgan imo-ishoralar qo'llaniladi. Mustaqillik kuni, Navro'z kabi milliy bayramlarda, xalqaro festivallarda, madaniy tadbirlarda ham surdotarjimonlarning ishtiroki muhim hisoblanadi, muzey va ko'rgazmalarda esa gid nutqini imo-ishora tili orqali tushuntirib beradi. Sport sohasida esa surdotarjimonlik kar va zaif eshituvchi sportchilarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularning musobaqalarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi, sportda tenglik va inklyuzivlik tamoyillarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. OAVda surdotarjimonlik kar va zaif eshituvchi fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotdan chetda qolmasligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangiliklar dasturlarida surdotarjima xizmati muntazam yo'lga qo'yilishi zarur, chunki bu ularning jamiyatdagi faol ishtirokini kengaytiradi. Madaniy va ko'ngilochar dasturlar – konsertlar, teatr tomoshalari, turli ko'rsatuvlarda ham alohida surdotarjimon oynasi bo'lishi lozim. Ta'limiy ko'rsatuvlar orqali esa fan, texnologiya va boshqa o'quv dasturlarining eshitishta nuqsoni bo'lgan shaxslarga yetkazilishi ularning bilim olish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Subtitr (yozuvli tarjima) eshitishta nuqsoni bo'lgan odamlar uchun eng qulay vosita hisoblanadi. Televizion ko'rsatuvlar, filmlar va seriallarda subtitr berilishi ularning to'liq mazmunni tushunishiga yordam beradi. Subtitrdan faqat nutq emas, balki muhim ovoz effektlari (masalan: "qo'ng'iroq chalindi", "qo'l qarsaklar", "eshik yopildi") ham ko'rsatilsa, bu kar tomoshabinlar uchun yanada tushunarli bo'ladi. Internet va raqamli platformalarda ham surdotarjima xizmatlarini rivojlantirish muhimdir. YouTube, Facebook yoki boshqa platformalarda jonli efir vaqtida surdotarjimon ishtirok etishi mumkin.

XULOSA

Ko'plab davlatlarda media kontentning muayyan foizi majburiy ravishda subtitr yoki surdotarjimon bilan ta'minlanishi qonun bilan belgilangan. BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasida ham eshitishta nuqsoni bo'lgan shaxslarning axborot olish huquqi alohida ta'kidlangan. Kar va zaif eshituvchi insonlarning ijtimoiy faolligi ortadi, jamiyatda inklyuzivlik tamoyili mustahkamlanadi, ularning davlat boshqaruvi, siyosiy jarayonlar, ta'lim va madaniyatdagi ishtiroki kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.sihglanguage.com
2. Qodirova F.U., Dehqanova M.G. Surdotarjimonlik praktikumi. – CHDPU, 2024.
3. Qodirova F.U., Dehqanova M.G. Daktilologiya va imo-ishoraga o'rgatish metodikasi. – CHDPU, 2024.
4. Qodirova F.U. va boshq. Surdopsixologiya. – CHDPU, 2023.
5. Karimova N., To'xtayeva G. Maxsus pedagogika asoslari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
6. Rasulova Z.M. Surdotarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Abdurahmonova M.K. Nogironligi bo'lgan shaxslar bilan ishlash psixologiyasi. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023.
8. UNESCO. Inclusive Education: Ensuring Access for All. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.